

TAHRIR SAN’ATIDA INDIVIDUALLIK

**Amaliy tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi
Boyboboyev Hayotjon Abdujabborovich**

Annotatsiya

Odatda, asar yoki maqola nashr etilish va e’lon qilinishdan avval tahrirga ehtiyoj seziladi. Muallif nuqtai nazari va maqsadidan kelib chiqib amalga oshirilgan tahrir asarning muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tahrir jarayoni va uning bosqichlari, muharrir individualligi, matn tahririning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mavzu bo‘yicha tadqiqotchilar va olimlarning fikrlariga munosabat berilgan.

Kalit so‘zlar: tahrir, nashrga tayyorlash, tahrir san’ati, individuallik, mahorat.

Tahrir – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ozod qilish, tuzatish, muharrirlik qilish, yozish, ijod qilish ma’nolarini ifodalaydi [1, 42]. Tahrir deganda ifodani, qoidani, qarorni, majburiyatlarni aniqlashtirish, umuman turli hujjatlarni tayyorlash tushuniladi [2, 3]. Nashr sohasidagi “tahrir” tushunchasining turlicha talqini mavjud.

Asarlar tahriri bir necha jarayonni o‘z ichiga oladi: so‘zlarni qo‘llash me’yorlarining buzilishi va leksik xatolarni to‘g‘rilash, matnni stilistik jihatdan tuzatish, asar kompozitsiyasi mukammalligiga putur yetkazuvchi mantiqiy noaniqliklarni bartaraf etish, umumiy mazmunni buzmagan holda qayta ishlash, qisqartirish va tartibga keltirish, faktik materiallarni (mas., manbalar, sitatalar, atamalar, sanalar, nomlar, raqamlar va hok.) tekshirish kabi.

Kitoblar va gazeta-jurnallarni nashrga tayyorlash, kino va multfilmni suratga olish yoki spektakl uchun ssenariy tayyorlash, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarni efirga uzatish singari ilmiy-ijodiy jarayonlarda tahrir san’atining ko‘p qirraliligi namoyon bo‘ladi. Ilmiy-texnik (ixtisoslashgan), adabiy-badiiy, tarjima yoki huquqiy asarlar tahriri aniq maqsad, vazifa va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, matn yoki ilmiy-ijodiy mahsulotning iste’molchilar (o‘quvchi, tomoshabin) yoshi, guruhi, tajribasi, dunyoqarashi, kasb-kori va hokazolarga mos kelishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi talab etiladi.

Shu jihatdan, tahrir san’atida individuallik – muharrir faoliyatining asosini tashkil qiladi. Muharrir mehnati har bir materialga tanqidiy yondoshish, asar mavzusi va yo‘nalishiga ko‘ra tahlil qilish, shaxsiy qarorlar qabul qilishda ko‘rinadi. Biroq matn nomukammalligini bartaraf etishda uslub va g‘oyani, kompozitsiya tugalligi va til jozibasini saqlab qolish muhim. Misol uchun, ilmiy jurnal materiallarini tahrir qilish bilan badiiy asar tahririda o‘ziga xosliklar vujudga keladi: istilohlar, aniqlik, his-tuyg‘u va tasvir kabi. Bolalar uchun yaratilayotgan asarlarda esa ularga tushunarli bo‘lmagan atama va fikrlar olib tashlanadi yoki o‘zgartiladi, soddalashtiriladi.

Har qanday muharrir asarni to‘laqonli tahrir qilishi uchun bir necha bosqichlarda mehnat qilishi talab etiladi.

Jumladan:

1. Matn bilan tanishuv (dastlabki, boshlang‘ich tahrir). Bunda butun matn mazmuni, mundarija va tartibi, asar g‘oyasi va maqsadi umumiy baholanadi.
2. Chuqurlashtirilgan tahrir. Mikromatnlar o‘rtasidagi uzviy aloqalar, alohida matnlardagi izchillik ko‘rib chiqiladi, xatolar va muayyan detallar tuzatiladi.
3. Nazorat o‘qishi. Butun asardagi yaxlitlik, mazmuniy bog‘lanish va murakkab elementlar, sana va raqamlardagi aniqlik ko‘rib chiqiladi.

Ba’zi tadqiqotchilar esa bu jarayonni tanishuv o‘qishi, sidirg‘a o‘qish, chuqur o‘qish, sayqallov o‘qish kabi bosqichlarga bo‘lishadi¹.

Har qanday matn nashr etilish yoxud e’lon qilinishdan oldin tahrirdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Asar (matn) qimmati, ilgari surilayotgan g‘oya va mavzuning ta’sirchanligi ko‘p jihatdan tahrir qanday bo‘lishiga bog‘liq. Bu murakkab ijodiy va individual mehnat faoliyati muharrirdan keng dunyoqarash, sohaviy bilim va lingvistik salohiyat talab qiladi. Shu jihatdan muharrir faoliyatiga tahririyl tahlil va shaxsiy xulosalarning amaliyotga tatbiq qilinishidan iborat ijodiy jarayon deb baho berish mumkin².

¹ З.Т.Тохиров. Таҳрир мантиқи. –Т., “Ўзбекистон” НМИУ, 2016, 90-91-бетлар; Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». -- 2-е изд., испр. и доп.-- М.: Высш. Школа, 1980; Редакторский анализ – профессиональный метод редактора. https://zinref.ru/000_uchebniki/02800_logika/011_lekcii_raznie_44/323.htm

² Мильчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная часть теории редактирования. 1977, С-Пб.



Muharrir tahlili qo‘lyozmani muayyan yo‘nalishda ko‘zdan kechirishdan boshlanib, muallifning maqsad-muddaosini anglagan va bundan yiroqlashmagan holda, bo‘lajak asarning qimmati, ilmiy yoki badiiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilishgacha izchil davom etadi [3, 179].

Boshqacha aytganda, muharrir tahlili yoxud tahrir san'ati tahririyat-nashriyot ishining sifatlari natijasini ta'minlab beruvchi, o'zida maxsus uslublarni mujassamlashtirgan faoliyat sanaladi³.

Ta'kidlash kerakki, tahrir san'ati to‘lig‘icha individual, yakka shaxsning ilmiy-ijodiy mehnat faoliyatiga asoslanadi. Garchi ba’zi ishlarda jamoaviy tahrir e’tiborga olinsa-da, mavzu, soha yoki yo‘nalish nuqtai nazaridan individual fikrlar, shaxsiy mulohazalarga tayaniladi.

Matn tahririda xoh alohida muharrir, xoh muallifning o‘zi bo‘lsin, asosiy maqsad – asarning pishiq-puxtaligi, sayqallanishi, ilmiy-amaliy faktlarga mosligi, ta’sirchanligi va o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishidir. Shu nuqtai nazardan asar tahriri yo‘nalishlarini uch turga bo‘lish mumkin: adabiy-badiiy, ilmiy va texnik.

Har qanday matn adabiy-badiiy tahrirga muhtoj sanaladi. Adabiy tahrirni qisqacha g‘oyalar, tushunchalar, muallif fikrini asoslovchi dalillarni yanada aniqroq so‘zlar, ifodalar orqali yetkazish uchun olib boriladigan izlanishlar jarayoni deb ham atash mumkin. Tahrirning bu turi material bilan tanishish, til qonun-qoidalariga rioya etilishi, asar nomi yoki maqola sarlavhasidagi g‘oyaning matnda yoritilish darajasi, leksik, grammatik, stilistik qurilish, noadabiy leksikaning qo‘llanishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Misol uchun, yuridik mazmundagi matnda badiiy to‘qimalar, ekspressiv-emotsional bo‘yoqli jumlalar bo‘lmasligi shart, bolalar uchun atalgan asar esa tushunarsiz so‘zlar, murakkab terminlardan xoli, yosh nuqtai nazaridan mos bo‘lishi talab etiladi. Adabiy tahrir nashrga tayyorlanayotgan matnning mazmuni va adabiy tuzilishiga javob beradi.

Ilmiy tahrirda matndagi fakt va raqamlar aniqligi, chizma, formula, hujjat va sitatalardagi izchillik muhim sanaladi. Bunda dastlab materialda ilgari surilgan g‘oya va fikrning dolzarbligi yoki aniqligi tekshiriladi, so‘ng leksik, stilistik, punktuatsion talablar ko‘rib chiqiladi.

Innovation House

З Свешникова И.К. Технология редакционно-издательского дела: Учебное пособие. -М.: Изд-во МГАП «Мир книги», 1995.

Texnik tahrirda esa maket va nazorat nusxadagi kamchilik-nuqsonlar, sahifalar, bo‘limlar va sarlavhalar tartibi, surat, chizma, jadval va illustrasiyalar tiniqligi singari talablarga e’tibor qaratiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, tahrir san’ati va uning individualligi asarlar muvaffaqiyatiga xizmat qilish bilan birga, muharrir salohiyati, uning bilim doirasi va professional mahoratidan darak beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
2. 3.Т.Тоҳиров. Таҳрир мантиқи. –Т., “Ўзбекистон” НМИУ, 2016.
3. Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». – 2-е изд., испр. и доп.-- М.: Высш. Школа, 1980.
4. Д.Тешабаева, Г.Бакиева ва бошк. Медиалингвистика ва таҳрир. III жилд. Т., “O‘zbekiston”, 2019.
5. Свешникова И.К. Технология редакционно-издательского дела: Учебное пособие. -М.: Изд-во МГАп «Мир книги», 1995.
6. Мильчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная часть теории редактирования. -С-Пб. 1977.

Research Science and Innovation House